

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#34 (16688)
2025-yil 27-avgust,
chorshanba



/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan

2-bet



Foto: Mariya MAL'NOVSKAYA

DXX KUBOGI YAKUNLANDI



YETAKCHI
"KELAJAK
BUNYODKORI"
MEDALI BILAN
TAQDIRLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mustaqilligimizning 34 yilligi munosabati bilan bir guruh soha xodimlarini mukofotlash to'g'risidagi farmoniga muvofiq Buxoro viloyati Romitan tumanidagi Tarnaut mahallasi yoshlar yetakchisi **Mirshodbek Bozorov** mamlakat taraqqiyoti va yoshlar tarbiyasidagi fidoyiligi uchun "Kelajak bunyodkor" medali bilan taqdirlandi. Mukofot mamlakatimizda yoshlar-ga qaratilayotgan yuksak e'tiborning amaliy ifodasidir.

YOSHLAR BILAN yelkama-yelka



2-bet

SHAHZODANING QIZILOY MAHALLASIDAGI NAMUNALI FAOLIYATI

Mahallalarda faoliyat yuritayotgan yoshlar yetakchilari yoshlarning muammolarini o'rganish, bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka yo'naltirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish va ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida jonbozlik ko'rsatmoqda. Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi Qiziloy mahallasi yoshlar yetakchisi Shahzoda Tolibovning faoliyati ham namunali tajriba sifatida alohida e'tiborga loyiq. U Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamentining "Faollar jamoasi" va Yoshlar maslahat guruhining a'zosi hisoblanadi.

– Yoshlar yetakchisining mehnati oson emas, – deydi yoshlar yetakchisi Shahzoda Tolibova. – Har bir yoshning muammasini o'rganish, ularga individual yondashish talab etiladi. Kimdir ishli bo'lishni xohlasa, yana kimdir tadbirkorlikni boshlash orzusida, boshqasi esa o'z iste'dodini namoyon etish uchun imkon kutadi. Shunday vaziyatlarda mening eng asosiy vazifam ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish, kerakli tashkilot va mutasaddilar bilan bog'lashdan iborat bo'ladi. Ayrim yoshlarda o'ziga ishonch yetishmaydi, ba'zilar esa imkoniyatlar borligiga qaramay, faol bo'lishga shoshilmaydi. Men uchun eng katta sinov – ularning qalbidagi ishonchni uyg'otish, "men ham qila olaman" degan ishonchni shakllantirish...

HOKIM VA YOSHLAR

Boysun tumani hokimi Bahodir Shukurov yoshlar bilan uchrashib, dildan suhbatlashdi. Ular duch kelayotgan muammolarni eshitib, hal etish yo'llarini izladi. Tumandagi muassasa, tashkilot va korxonalar rahbarlari ham ishtirok etgan ochiq muloqotda yigit-qizlar qator taklif va tavsiyalarni bildirdi. Muhim masalalarni o'rtaga tashlab, bandlik, imtiyozli kredit olish, talabalar kontrakt to'lovlariga ko'maklashish kabi muhim masalalar aytiladi. Muammolarni yechish yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berilib, vaqt talab etadigan masalalarga aniq muddat belgilandi. Ijrosi qat'iy nazoratga olindi.

Xolmo'min MAMATRAYIMOV,
O'za muxbiri

IJARA SHARTNOMASI

2-bet

TALABALAR UYNI IJARAGA
OLGANDA NIMA UCHUN
IJARA SHARTNOMASI TUZISHI
KERAK?

O'quv yili boshlanishi bilan talabalar uchun eng dolzarb masalalardan biri – yashash joyi topish. Ko'pchilik ijara uylarga joylashadi, biroq aksariyat hollarda bu jarayon hech qanday huquqiy asos, ya'ni shartnomasiz amalga oshadi. Natijada talabalar va uy egalari turli tushunmovchiliklar, moliyaviy nizolar, hatto kutilmagan ko'chish holatlariga duch kelishmoqda. Oddiy qog'ozdek ko'ringan ijara shartnomasi esa aslida nafaqat talabalar, balki uy egasi uchun ham huquqiy kafolat va himoya vositasidir. Qolaversa, davlat tomonidan ijara pulining bir qismi to'lab berilishi uchun ham shartnoma talab etiladi. Shu bois bugungi kunda talabalar uchun ijara shartnomasini to'g'ri tuzish va uning ahamiyatini tushunish juda ham muhim.



BOLA PARVARISHI



FAQAT ONANING ISHIMI?

3-bet

Ota-onalik mas'uliyatini teng taqsimlash bo'yicha dunyoda so'nggi yillarda aniq yo'nalish paydo bo'ldi: bolaga g'amxo'rlik faqat onaning emas, otaning ham bevosita ishtiroki bilan boshlanishi kerak. Shu sabab ko'plab mamlakatlarda otalarga qisqa muddatli bo'lsa-da, haq to'lanadigan ta'til joriy etilgan. Bunday mexanizm chaqaloq bilan erta emotsional bog'lanishni kuchaytiradi, onaning tug'uruqdan keyingi davrini yengillashtiradi va mehnat bozorida gender tenglikka xizmat qiladi. O'zbekistonda esa amaldagi tartiblar otaning alohida, haq to'lanadigan ta'tilini nazarda tutmaydi, parvarish bo'yicha asosiy yuk hanzu onaga yuklanadi. Bu nafaqat oilaviy muvozanatga, mehnat unumdorligi va ayollarning ishga qaytish imkoniyatlariga ham ta'sir qiladi.

Xavfli o'yin

3-bet

VIRTUAL MAYDONDA REAL TAHDID

XXI asrda bolalik davri tushunchasi mazmunan o'zgaryapti. Ilgari bolalar faqat atrofidagilar bilan o'ynagan bo'lsa, bugun ular planshet yoki telefon orqali butun dunyo bilan aloqada bo'ladi. Raqamli platformalar va onlayn o'yinlar bolalarning tasavvurini kengaytirayotgani bilan birga, ruhiyati, qadriyatlar va xulq-atvoriga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ota-onalar, pedagoglar, jamiyat va davlatlar uchun yangi mas'uliyat hamda xavotirlarni yuzaga keltiryapti.

Shu jarayonda eng ko'p tilga olinayotgan platformalardan biri – "Roblox". U ilk bor 2006-yilda ishga tushgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda bolalar va o'smirlar orasida eng ommabop o'yin maydonlaridan biriga aylandi. Millionlab foydalanuvchilarni jalb qilayotgan platforma haqida so'nggi vaqtlarda jiddiy savol va tanqidiy chiqishlar ko'paydi. OAVdagi tekshiruvlar, xalqaro nashrlar hamda ijtimoiy tarmoqlarda ayrim faollar ilgari surayotgan xavotirlar "Roblox" bolalar xavfsizligi va tarbiyasida murakkab oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko'rsatmoqda.



KITOBXON OILALAR ILK SINOVI



Yurtimizda yosh oilalarining bilimli, ma'naviyatli va farzandlariga ibrat bo'ladigan ota-ona sifatida shakllanishida kitobning o'zni beqiyosdir. Shu maqsadda o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon oila" tanlovining tuman va shahar bosqichlari o'z yakuniga yetdi.

Joriy mavsumda tanlovda 96 mingdan ortiq yosh oila (er va xotin) ishtirok etdi. Musobaqa test sinovi orqali tashkil etilib, eng yuqori ball to'plagan oilalar keyingi – hududiy bosqichga yo'llanma oldi. Natijada respublika bo'yicha 208 ta oila hududiy bosqich ishtirokchisiga aylandi.

Tanlovning respublika bosqichida g'oliblarni quyidagi mukofotlar kutmoqda:

- 1-o'rin
PREZIDENT SOVG'ASI SIFATIDA
"BYD" ELEKTROMOBILI;
- 2-o'rin
50 MLN SO'M;
- 3-o'rin
30 MLN SO'M.

Respublika bosqichining qolgan barcha ishtirokchilariga 10 mln so'mdan pul mukofoti hamda kitoblar to'plami taqdim etiladi.

Hududiy bosqich bellashuvlari sentabr-oktabr oylarida o'tkazilishi belgilangan.



Xolislik, TEZKORLIK VA MAS'ULIYAT

Ommaviy axborot vositalari vakillarining saylov jarayonlarini yoritishdagi muhim o'rni, mas'uliyati, format va yondashuvi

4-bet

Ommaviy axborot vositalari saylov jarayonlarini xalq ommasiga yetkazishda muhim o'rin tutadi. Saylovlar ochiq va oshkora o'tishini ta'minlashda, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda OAVning o'zni beqiyos. Jurnalistlar orqali aholi turli darajadagi saylovlar haqida tezkor va xolis ma'lumot olib boradi. Bu saylov jarayonlarini ommalashtiradi. Saylovchilarda o'tkazilayotgan muhim siyosiy jarayon yuzasidan zarur tushunchalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Albatta, saylovlarni erkin va adolatli o'tkazishda ommaviy axborot vositalariga keng imkoniyatlar yaratilishi shart. Saylov komissiyalari va saylov uchastkalarida jurnalistlar erkin harakatlanish, axborot manbalaridan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Davlat va xususiy axborot vositalari uchun saylov jarayonida teng sharoit yaratilishi, ularning qo'llab-quvvatlanishi ochiq saylov muhitining muhim jihati. Mamlakatimizda so'nggi yillarda o'tkazilgan bunday muhim siyosiy jarayonlarda bu kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratilayotgani OAV vakillari faoliyatining qonuniy kafolatlaridir.

YOSHLAR BILAN



Shahzoda TOLIBOVA

Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi Qizilo'y mahallasi yoshlar yetakchisi

YER AJRATISH – O'Z YERIDAN PUL TOPIISH IMKONIYATI

Yoshlarni mustaqil qilishda ajratilayotgan yer resurslari katta ahamiyatga ega. "Bir hudud – bir mahsulot" tamoyili asosida bir nechta yoshga yer maydonlari ajratildi. Ahror Hazratqulov, Gulnoza Islomova, Muxlisa Saydullayeva, Hasan Alimqulov, Jahongir Tohirov, Akmal Norqulov kabi yoshlar poliz ekinlari yetishtirishni yo'lga qo'ydi. Bu yoshlar o'z mahsulotlarini sotib, oilasini ta'minlamoqda.

– Ish topish, daromad manbai yaratish haqida ko'p bosh qotirar edim, – deydi mahalla yoshlaridan biri Hasan Alimqulov. – Yoshlar yetakchisi yer ajratish bo'yicha imkoniyatlar borligini tushuntirib, amaliy yordam ko'rsatdi. "Bir hudud – bir mahsulot" tamoyili asosida men ham yer oldim va tarvuz, qovun, sabzi va boshqa mahsulotlar ekishni boshladim. Dastlab bu ish menga og'irdek tuyuldi, lekin vaqt o'tishi bilan natijani ko'rib, mehnatim bekor ketmaganini angladim. Eng muhimi, o'zinga ishonchim oshdi: men ham mustaqil, mehnatsevar inson sifatida jamiyatga foyda keltira ol-yapman.

OG'IR TOIFADAGI YOSHLARGA E'TIBOR

Yoshlar bilan ishlashda eng og'ir yo'nalishlardan biri ijtimoiy himoyaga muhtoj, jinoyatchilikka moyil yoki og'ir toifadagi yoshlarga to'g'ri yondashuvdir. Shahzoda Tolibova shu toifaga kiruvchi 2 yoshning muammosini chuqur o'rgandi. Ulardan biri probatsiya, ikkinchisi esa profilaktik ro'yxatda edi.

Bu yoshlarning xonadoniga borib, ruhiyati, oilaviy va moddiy holati o'rganildi. Biriga doimiy ish topib berildi, ikkinchisi esa imtiyozli kredit asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ldi. Eng asosiysi, bu jarayon bir martalik harakat emas, balki doimiy ravishda olib borilgan individual suhbatlar va psixologik ko'mak tufayli amalga oshirildi.

Bu yondashuv natijadorlikka asoslangan ijtimoiy ish modeli bo'lib, ko'plab mahallalarda tatbiq etilishi mumkin bo'lgan muhim tajriba hisoblanadi.

QIZILO'Y MAHALLASI BALANSI:

Aholi:
2583 nafar;
Yoshlar:
587 nafar;
Ayol-qizlar:
304 nafar.



12 NAFAR YOSHGA 210 MILLION SO'MLIK KO'MAK

Shahzoda Tolibovaning tashabbusi bilan Qizilo'y mahallasida 12 nafar yoshga umumiy qiymati 210 million so'mga teng imtiyozli kredit ajratildi. Bu kreditlar moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularga ishonch va mustaqil daromad manbai yaratish vositasi bo'ldi. Imtiyozli kreditlar yordamida Muhriddin Suvonov, Samandar Tosh-nazarov, Zuhra To'ychiyeva, Ruxshona Ismatullayeva, Shahzod Tosh-po'latov issiqxona faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Aziza Maxamatova hamshiralik xizmati ko'rsatishni boshladi. Sarvar Andaqulov asalarichilik bilan shug'ullanmoqda. Shahlo Tursunova, Navro'z Hamroyev chorvachilik yo'nalishida daromad topyapti.

Bu yoshlar bugun o'zlarini band qilish bilan birga yaqinlariga ham yordamchi bo'lmoqda. Ular kelgusida o'z sohasi bo'yicha boshqalarga namuna bo'la oladigan kuchli tadbirkor bo'lib yetishishlari shubhasiz.



Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



YOSHLARGA TO'G'RI YO'L KO'RSATISH,
KERAKLI TASHKILOT VA MUTASADDILAR
BILAN BOG'LASH MENING ENG ASOSIY
VAZIFALARIMDAN BIRIDIR.



QIZILO'Y
MAHALLASIDA 12
NAFAR YOSHGA
UMUMIY QIYMATI
210 MILLION
SO'MGA TENG
IMTIYOZLI KREDITLAR
AJRATILDI.

TASHABBUS VA SHAXSIY MAS'ULIYAT

Shahzoda Tolibova tashabbusi bilan mahallada sport to'garaklari, xususan, mini futbol bo'yicha qizlar jamoasi tuzildi. Shu kungacha Ibrat farzandlari loyihasi doirasida 10 nafar yosh, jumladan, yetakchining o'zi ham ingliz tili kurslarini tamomlab, sertifikat oldi.

Bu Shahzodaning yoshlar hayotini o'zgartirishga chin dildan bel bog'laganini ko'rsatadi.



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Besh tashabbus olimpiadasi

DXX KUBOGI YAKUNLANDI



"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida futbol va mini futbol bo'yicha o'tkazilgan "DXX kubogi" musobaqalari nihoyasiga yetdi.

Mahalla yoshlari o'rtasida sportning 13 ta turi, jumladan, yengil atletika, stol tennisi, vorkaut, shaxmat, shashka, armrestling, voleybol, stritbol, kurash, futbol, mini futbol, gandbol va gimnastika bo'yicha bellashuvlar tashkil etildi. Imkoniyati cheklangan yoshlar uchun adaptiv sport musobaqalari ham o'tkazildi.

Sport bellashuvlariga qiziqish yuqori bo'ldi. 7,3 million nafar yosh 5tashabbus.uz sayti orqali elektron tarzda ro'yxatdan o'tdi. Ulardan 6,5 milliondan ortig'i musobaqalarda bevosita qatnashdi, shundan 3 millionini qizlar tashkil etdi.

Birgina Davlat xavfsizlik xizmati kubogi uchun futbol va mini futbol bahslarida ishtirok etish uchun bu yil 783 ming nafar yosh ro'yxatdan o'tgan. Ularning 381 ming nafari 16-30 yoshli yigitlar, 402 ming nafari esa mini futbol yo'nalishida qatnashdi. Shundan qizlar soni 156 ming nafar (39%)ni tashkil etdi. Taqqoslash



uchun, 2024-yilda futbol va mini futbol musobaqalarida 537 ming nafar yosh qatnashgan edi.

17-23-avgust kunlari bo'lib o'tgan final natijalariga ko'ra, g'olib va sovrindorlar ro'yxati quyidagicha bo'ldi:

MINI FUTBOL (qizlar o'rtasida)

1-o'rin – Navoiy viloyati Xatirchi tumani Jaloyir mahallasi;
2-o'rin – Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Kamolot mahallasi;
3-o'rin – Samarqand viloyati Jomboy tumani No'sh mahallasi.

MINI FUTBOL (o'g'il bolalar o'rtasida)

1-o'rin – Toshkent shahri Shayxontohur tumani Yangi Beltepa mahallasi;
2-o'rin – Samarqand viloyati Toyloq tumani Tepaqishloq mahallasi;
3-o'rin – Qashqadaryo viloyati Koson tumani Mug'jagul mahallasi.

KATTA FUTBOL

1-o'rin – Sirdaryo viloyati Yangiyer shahri Abdurahmon Jomiy mahallasi;
2-o'rin – Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani Qoratepa mahallasi;
3-o'rin – Toshkent shahri Chilonzor tumani Katta Qozirobod mahallasi.

Yuridik klinika

IJARA SHARTNOMASI

Shahruza SATTOROVA
tayyorladi.



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

SHARTNOMA YOZMA SHAKLDA TUZILADI

Fuqarolik kodeksining 603-moddasiga muvofiq uy-joy ijarasi shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Shartnomani hisobga qo'yish shartnomaga tuzilgan kundan 3 kundan kechiktirmay ijara.soliq.uz portali orqali bepul amalga oshiriladi va bu ijaraga beruvchining majburiyati hisoblanadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 159-1-moddasida shartnomasiz ijaraga berganlik uchun javobgarlik belgilangan.

MUDDATI

Uy-joy ijarasi shartnomasi 5 yildan ortiq bo'lmagan muddatga tuziladi. Agar shartnomada muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, u 5 yilga tuzilgan deb hisoblanadi. Ijaraga oluvchi yangi muddatga shartnoma tuzishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladi.

IJARA HAQINI ANIQ BELGILASH

Fuqarolik kodeksining 611-moddasiga asosan uy-joy uchun to'lanadigan haqning miqdori taraflarning o'zaro kelishuviga binoan uy-joyi ijaraga berish shartnomasida belgilab qo'yiladi. Basharti qonunga muvofiq uy-joy uchun to'lanadigan haqning eng ko'p miqdori belgilab qo'yilgan bo'lsa, shartnomada belgilangan haq ana shu miqdordan oshib ketmasligi lozim.

Uy-joy uchun to'lanadigan haqning miqdori bir tomonlama o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

HUQUQ VA MAJBURIYATLAR

Ijaraga beruvchi ijaraga berilgan turar joydan tegishli darajada foydalanishi, ijaraga oluvchiga haq evaziga zarur kommunal xizmat ko'rsatishi yoki xizmat ko'rsatilishini ta'minlashi, ko'p kvartirali uyning umumiy foydalaniladigan mol-mulki va turar joy binosida joylashgan kommunal xizmat ko'rsatish qurilmalari ta'mirlanishini ta'minlashi, shuningdek, uy-joydan faqat ijaraga shartnomasida ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish choralarini ko'rishi lozim. Ijaraga oluvchi esa mulkdan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi, uni shartnomada belgilangan maqsadga muvofiq ishlatishi va o'z vaqtida ijaraga haqini to'lashi shart.

SHARTNOMANI BEKOR QILISH

Ijara shartnomasi taraflarning o'zaro kelishuvi asosida bekor qilinishi mumkin. Uy-joyi ijaraga oluvchi o'zi bilan birga doimiy yashaydigan boshqa fuqarolarning ozil yoki ijaraga beruvchini uch avvalgi bilan ravishda ogohlantirib, istalgan vaqtda ijarasi shartnomasini bekor qilishga haqli.

Ijaraga beruvchining talabi bilan shartnomani bekor qilish faqat sud tartibida va quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- ijarachi tomonidan ijaraga haqi olti oy davomida to'lanmasa yoki qisqa muddatli ijaraga shartnomasida belgilangan to'lov muddati ikki martadan ko'proq buzilsa;
- ijaraga olingan uy-joy vayron qilinsa yoki unga jiddiy zarar yetkazilsa;
- uy-joydan qonun hujjatlarida taqiqlangan yoki g'ayriqonuniy maqsadlarda foydalanilsa.

BOLA PARVARISHI FAQAT ONANING ISHIMI?

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



“Oila va gender” ilmiy tadqiqot instituti ma'lumotlari asosida **Shahruza SATTOROVA** tayyorladi.

ONA UCHUN JARIMA

Yaqinda “Oila va gender” ilmiy tadqiqot instituti o'tkazgan o'rganishlar ham otalar uchun haq to'lanadigan ta'tilning mavjud emasligi haligacha hal qilinmay qolayotgani kamchilik sifatida qayd etilgan. Ya'ni qonunchilikda otalar uchun to'lanadigan ta'til ko'zda tutilmagan. Bu bola tug'ilganda to'liq parvarish yukining ayol zimmasida bo'lishi odatiy hol sifatida qabul qilinganidan darak beradi. Erkaklarning rasmiy ravishda farzand tug'ilganda muayyan muddat ishidan ajralib, ona bilan birga bolaga qarash imkoniyati yo'q. Natijada jamiyatda bolani parvarishlash “faqat onaning ishi” degan tushuncha mustahkamlanadi va ayol bir muddat mehnat faoliyatidan chekinadi.

Yuqoridagi holatlar ayollarning mehnat faoliyatiga salbiy ta'sir etadi, masalan, ko'plab ayollar farzandli bo'lgach, uzoq muddat ishga chiqmaydi yoki ishini butunlay tark etadi. Natijada bu ularning kasbiy o'sishi va daromadiga putur yetkazadi. Erkaklar esa, odatda, ish faoliyatini uzluksiz davom ettiradi, chunki ular uchun ta'til nazarda tutilmagan. Natijada mehnat bozorida “onalar uchun jarima” deb ataluvchi hodisa yuzaga keladi, ya'ni ona bo'lgan ayollar ishsiz va past maoshli bo'lib qolishi xavfi yuzaga keladi.

XALQARO TAJRIBA

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT)ning 2024-yildagi hisobotiga ko'ra, 185 ta mamlakatdan 115 tasida (62%) otalik ta'tili qonuniy ruxsat berilgan, shundan 70 mamlakatda (38%) bunday qonun mavjud emas. Xorij tajribalaridan ko'rinadiki, otalik ta'tili joriy etilish ayollarning mehnat bozoridagi holatini yaxshilashga yordam beradi. So'nggi yillarda bir qator davlatlar, xususan, Armaniston, Shveysariya va Ukraina ilk bor pullik otalik ta'tillarini joriy etgan. Gruziya, Gretsiya va Ispaniya kabi davlatlar esa qo'shimcha pulli ota-ona (oilaviy) ta'tillarini yo'lga qo'ygan. Masalan, Ispaniyada onalar va otalar uchun to'lanadigan ta'tillar tenglashtirilib, ularning har biriga 16 haftadan ta'til berilmoqda.

Tadqiqotlarga ko'ra, hatto 2 haftalik otalik ta'tili joriy etilishi onaning tug'uruqdan keyin ishga tezroq qaytish ehtimolini 2 kar-

O'ZBEKISTONDA OTALIK TA'TILI NEGA YO'Q?

ra oshirishini ko'rsatgan. Masalan, Ispaniyada kiritilgan haftalik otalik ta'tili onalarning ishga chiqish ko'rsatkichini sezilarli darajada yaxshilagan. Norvegiya ota-onalarga 100 foiz ish haqi bilan 49 hafta va 80 foiz ish haqi bilan 59 haftalik ta'tilni joriy qilgan. Ta'til majburiy tartibda ona uchun kamida 15 hafta va ota uchun ham 15 hafta belgilangan. Kanadada ota-onalar 18 oygacha ota-onalik ta'tilini olishlari mumkin. Skandinaviya davlatlarida ota-onalik ta'tili uzoq muddat (o'rtacha 40 haftadan 60 hafta)gacha beriladi. Germaniyada ota-onalik ta'tili 12 oygacha davom etadi, agar ota va ona ta'tildan galma-gal foydalansa, bu muddat 14 oygacha uzaytiriladi.

TAKLIFLAR

Ko'rib turganingizdek, mavjud muammolarni yumshatish va oilaviy mas'uliyatni yanada teng taqsimlash uchun huquqiy islohotlar zarur. Ushbu muammo yechim sifatida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Qonunchilikka pulli otalik ta'tili tushunchasini kiritish va uni kamida 2 hafta miqdorida belgilash. Bu otalarga farzandi tug'ilganda rasmiy ta'til olib, chaqaloq parvarishida ishtirok etish imkonini beradi. Ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, otalarga 2 haftalik ta'til berilishi onalarning ishga qaytish ehtimolini oshiradi va ayollarning karyerasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mavjud bola parvarishi ta'tillarini faqat “ona ta'tili” emas, balki ota-ona ta'tili sifatida ko'rib chiqish kerak. Ya'ni bola tug'ilgach beriladigan uzoq muddatli (masalan, 3 yilgacha) ta'tilning bir qismini otaning olishiga ham sharoit yaratish kerak. Xalqaro tajribada bunday yondashuvlar bor, masalan, Shveysiya va boshqa Skandinaviya davlatlarida ota-ona ta'tilining ma'lum qismi faqat otalar uchun “kuyib ketuvchi kvota” tarzida beriladi, agar o'sha qismini ota olmasa, ta'til kuyadi, onaga o'tkazilmaydi. Bu usul oilalarni ta'tillarni bo'lishishga undaydi. O'zbekistonda ham bola parvarishi ta'tilini yanada takomillashtirib, otalarning undan foydalanishini rag'batlantirish kerak. Bu nafaqat ayollarning ishga tezroq qaytishiga yordam beradi, balki jamiyatda bolalarni parvarishlash faqat ayolning vazifasi emasligi haqidagi tasavvurni ham shakllantiradi.

SO'NGGI VOQEALAR

Oxirgi yillarda “Roblox” platformasi bir nechta og'ir sud da'volarining markazida turibdi. Masalan, AQShning Shimoliy Karolina shtatida onalardan biri qizi 10 yoshida “Roblox”dagi predator tomonidan aldan-ganini aytib sudga murojaat qildi (*predator* – inglizchada ovchi, yirtqich degani. Internet va ijtimoiy xavfsizlik kontekstida bolalarni yoki himoyasiz insonlarni nishonga olib, ulardan jinsiy, moliyaviy yoki boshqa manfaat olishga uringan shaxsni anglatadi). Da'vo tafsilotlarida predator dastlab platformada ishonch qozongan, keyinroq suhbatni tashqi kanallarga ko'chirib, bolani “Robux” evaziga jinsiy xarakterdagi kontent yuborishga majbur qilgani ko'rsatilgan. Bu haqda “New York Post” va mahalliy “WRAL News” batafsil xabar bergan.

Shunga o'xshash voqea Sent Luis shahrida ham qayd etilgan. 13 yoshli qiz “Roblox”da predator ta'siriga tushib, keyinchalik zo'ra-vonlik qurboniga aylangan. “Roblox” 2024-yilda 24 mingdan ortiq shubhali faoliyat haqida ogohlantirish berganini da'vo qilgan, ammo ota-onalarning fikricha, bu choralarining real himoyaga deyarli aloqasi yo'q.



“ROBLOX”DAGI “LOOT BOX” VA “TASODIFIY MUKOFOT” TIZIMLARI BOLALARDA QIMORDAGIGA O'XSHASH RUHIY HOLATNI YUZAGA KELITIRADI.

“Washington Post”ning yozishicha, 2025-yil avgust oyida Luiziana shtati bosh prokurori Liz Murrill “Roblox”ni sudga berdi. Da'vo matnida platforma “predatorlar uchun ideal makon” deb atalgan va kompaniya foyda ortidan quvib, bolalar xavfsizligini ikkinchi darajaga surayotgani qayd etilgan. Bundan tashqari, Texas shtatidagi Galveston tumanida bir ona “Roblox” va “Discord”ni sudga berdi. Uning so'zlariga ko'ra, qizi dastlab “Roblox” orqali predator bilan tanishgan, keyinchalik mulot “Discord”da davom etib, fojiali oqibatlar-ga olib kelgan.

“Wired” jurnalining yozishicha, 2024-yilda “Roblox”da bolalarni eksploatatsiya qilish bilan bog'liq xabarlar soni 675 tadan birdaniga 24 mingga oshgan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, kompaniya joriy qilgan SI asosidagi nazorat vositalari va “Trusted Connections” kabi mexanizmlar predatorlarni to'liq to'xtatishga qodir emas.

JAHONDA II O'RIN



Xavfli o'yin

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

MUTAXASSISLAR FIKRI

Professor Emily Tanner (Sidney universiteti, Avstraliya). 2025-yil mart oyida Sidney universiteti tadqiqotchisi, media va raqamli madaniyat bo'yicha mutaxassis, professor Emily Tanner boshchiligidagi tadqiqotda 7–14 yoshli bolalar bilan suhbatlar o'tkazilgan. Ularning xulosalariga ko'ra, “Roblox”dagi “loot box” va “tasodifiy mukofot” tizimlari bolalarda qimordagiga o'xshash ruhiy holatlarni yuzaga keltiradi. Tanner bu tizimni “bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan qimor mexanizmi” deb atab, ularning moliyaviy ongini buzishini alohida ta'kidlagan.



**13 YOSHLI QIZ
“ROBLOX”DA
PREDATOR
TA'SIRIGA TUSHIB,
KEYINCHALIK
ZO'RAVONLIK
QURBONIGA
AYLANGAN.**

Raqamli madaniyat va oila xavfsizligi bo'yicha mutaxassis Sobia Rahman (Northwestern University, Qatar) “Qatar Tribune” gazetasi-ga bergan intervyusida “Roblox”dagi nazorat mexanizmlarining yetarli emasligini qayd etgan. Uning tavsiyasiga ko'ra, ota-onalar bola bilan mulototni kuchaytirishi, o'yin ichidagi chat funksiyasini o'chirib qo'yishi va vaqtini qat'iy nazorat qilishi shart. Mutaxassisning fikricha, platformadagi anonimlik bolalarni kibernetik xavfning nishon qiladi, shu bois ota-ona kuzatuvni eng samarali himoya chorasidir.

Raqamli o'yinlar va qimor o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan David Zendl (York universiteti, Buyuk Britaniya) ham “Roblox”dagi monetizatsiya mexanizmlari haqida ogohlantirgan. Uning ta'kidlashicha, “Robux orqali xarid qilish tizimi bolalarda real pulning qiymatini tushunishni qiyinlashtiradi, bu esa ortiqcha sarf-xarajatlarga olib keladi”. Zendl 2021-yilda chop etgan ilmiy maqolasida bu kabi tizimlar bolalarni qimor o'yinlariga tayyorlovchi psixologik “ko'pri” sifatida ishlashini ko'rsatgan.

GLOBAL NAZORAT CHORALARI

“Roblox”ning bolalar xavfsizligiga doir mojarolari ayrim mamlakatlarda keskin choralar-ga olib keldi. Masalan, Xitoy 2021-yilda platformani butunlay bloklay qo'ygan edi. Rasmiy Pekin bunga “o'quvchilarni noto'g'ri yo'nalish-ga soluvchi kontent” sabab bo'lganini bildir-

gan. Indoneziya ham 2022-yilda “Roblox”ni vaqtinchalik bloklagan. Bunga platforma mamlakatning ma'lumotlarni himoya qilishga oid qonunlariga mos emasligi sabab bo'lgan.

Turkiyada esa parlament a'zolari “Roblox”ni bolalar uchun xavfli deb atab, uning blokla-nishini talab qilgan. Turkiya Ichki ishlar vazirligi 2023-yilda o'tkazgan maxsus tekshiruv-larda platformada pedofillar faoliyat yuritishi aniqlanganini e'lon qilgan. 2024-yil 7-avgustda esa mamlakatda bu platforma bloklandi.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqida qabul qilingan “Digital Services Act” (DSA) qonuni asosida “Roblox”ning faoliyati bolalar uchun xavfsizlik mezonlari nuqtayi nazaridan alohida nazorat ostiga olingan. Bryussel rasmiylari platformadan bolalar psixologiya-si va qimorga o'xshash mexanizmlar bilan bog'liq xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rishni talab qilmoqda.

Bundan tashqari, Qatarda ham platforma bloklandi; 2021-yilda Gvatemala hukuma-ti ota-onalarga “Roblox”dan bolalarni saqlash haqida rasmiy ogohlantirish bergan; 2025-yil-da Indoneziya hukumati platformada chat filtrlari zaif ekani sabab mamlakatda taqiqla-nishi mumkinligidan ogohlantirgan.

“Roblox” bir qarashda oddiy o'yin platformasi sifatida ko'rinsa-da, uning atrofida ortayotgan tanqidiy chiqish va xalqaro darajadagi choralar platformani bolalar xavfsizligi uchun eng ko'p muhokama qilinayot-gan raqamli maydonlardan biriga aylantirdi. Sud jarayonlari, jurnalistik tekshiruvlar va ilmiy tadqiqotlar platformaning anonimlik va xavfsizlikdagi bo'shliqlarini hamda uning biznes modeli bolalar manfaatiga zid ekanini ko'rsatayпти.

Shu bilan birga, mamlakatimizda vaziyat hali aniq huquqiy bahoga ega emas. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bolalar ombudsmani yoki boshqa tegishli tashkilotlar rasmiy sahifalarida hozircha “Roblox” masala-si yuzasidan maxsus bayonot e'lon qilganini uchratmadik. Ehtimol, hozircha o'rganish bosqichidadir. Ammo ba'zi faollarning chaqiriqlari ko'zga tashlanadi.

Jamiyat va ota-onalar bunday muammo-lar yuzasidan faqat rasmiy choralarni kutib qolmasdan, o'zlari ham farzandlari faoliyatini kuzatib borishi, raqamli muhit xavflarini tushuntirishi lozim.

Faxr

SIFATLI MIGRATSIYA



Bugungi kunda ko'plab yoshlarimiz o'qish yoki ishlash maqsadida chet elga chiqmoqda. Ular o'z huquq va majburiyatlarini to'liq bilmasligi ba'zida turli muammolarga sabab bo'ladi.

Ana shunday muammolarning oldini olish va yoshlarni xabardor qilish maqsadida mahallalardagi yoshlar yetakchilari uchun o'quv-seminar tashkil etildi. Ular xavfsiz migratsiya, moliyaviy savodxonlik hamda odam savdosining oldini olish bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdi.

Tadbir Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi va Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) hamkorligida o'tkazildi.

Seminarda xalqaro ekspertlar, xususiy bandlik agentliklari va Migratsiya agentligi vakillari ishtirok etib, yetakchilarga o'z tajriba va bilimlarini ulashdilar.

Xolislik,

TEZKORLIK VA MAS’ULIYAT

Milliy qonunchilimizga ko'ra, ommaviy axborot vositalari vakillari saylov kampaniyasi davrida saylov komissiyalarining majlislarida, boshqa turdagi tadbirlarida bevosita ishtirok etishi, ovoz berish binolarida saylov jarayonlarini yoritish uchun akkreditatsiyadan o'tkazilishi lozim.

Saylovlarni yoritishda jurnalistlarga keng huquq va erkinliklar berilgan holda ular zimmasiga katta mas'uliyat ham yuklatiladi. Eng avvalo, ommaviy axborot vositalari vakillari berilgan imkoniyatlardan foydalanib, jamoatchilikka haqqoniy va xolis axborot yetkazishi lozim. Demak, saylov haqida har qanday ma'lumot tekshirilgan, to'g'riligiga to'liq ishonch hosil qilingan va xolislikka asoslanishi kerak.



OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VAKILLARINING SAYLOV JARAYONLARINI YORITISHDAGI MUHIM O'RNI, MAS'ULIYATI, FORMAT VA YONDASHUVI



Ommaviy axborot vositalari vakillari nafaqat saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish yuzasidan saylov komissiyalari o'tkazgan majlislar, tadbirlarni yoritishi, balki ularda qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyatini saylovchilarga xalqchil yetkazishi lozim. Saylov jarayonlarida joriy qilingan muhim o'zgarishlar, yangi qonunchilik me'yorlari maqsadli auditoriyalarga xolis taqdim etiladi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari saylov kampaniyasi davrida turli ko'rinishda axborot materiallarini ishlab chiqar ekan, eng avvalo o'tkazilayotgan saylovning ahamiyati, qonunchilik talablari, saylovda joriy qilinadigan muhim yangiliklar, xizmatlar, saylovchilar uchun yaratilgan imkoniyatlarni to'liq anglab yetishi zarur.

Shu o'rinda OAV tahririyatlari saylov jarayonlarini yoritishda bilim va tajribaga ega o'z vakillarining saylov qonunchiligi bo'yicha huquqiy savodxonligini yanada oshirish yuzasidan saylov komissiyalari tashkil etadigan seminar-treninglarda faol ishtirok etishini ta'minlashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu saylov jarayonlarining faol va xolis yoritilishida muhim omildir. Jurnalist faqat ishonchli manbalarga tayangan holda xabar tayyorlashi, axborotni buzib ko'rsatmasdan taqdim etishi talab etiladi.

Saylov kampaniyasi davrida yoki hududlarda bo'shab qolgan o'rinlarga o'tkaziladigan saylov jarayonlarida saylov uchastkalarida turib saylov jarayonlarini yoritishda, saylovchilar bilan intervyularni tashkil etishda ovoz berishning u yoki bu ko'rinishda yashirinlik prinsiplarini buzmasligi lozim. Misol uchun, ovoz berib bo'lgan saylovchidan qaysi siyosiy partiyani yoki nomzodni yoqlab ovoz berganini so'rash bu ovoz berishning yashirinlik prinsipini buzish demakdir. Yoki saylovchi yashirin ovoz berish kabinasida saylov byulletenini to'ldirayotgan jarayonda undan intervyu olish mumkin emas.

Jurnalistlar o'z faoliyati orqali saylovlarda oshkoralik va shaffoflikni yuksaltiradi. Bu esa saylov natijalariga ishonchni mustahkamlaydi. Saylovlarni xolis yoritish turli qonunbuzarlik holatlarining oldini oladi, saylov jarayonining to'g'ri o'tishiga ko'maklashadi.

2024-yil oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovida ommaviy axborot vositalari vakillari ilk bor "E-saylov" axborot tizimi orqali akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Saylov kampaniyasi davrida ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda saylov jarayonlariga oid 42 mingga yaqin axborot e'lon qilindi.

Qiyoslash uchun, 2019-yili o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovida saylov kampaniyasi davrida ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda saylov jarayonlariga oid 38 mingdan ortiq axborot e'lon qilingan edi. Raqamlar mamlakatimizda aholining elektoral madaniyatini yuksaltirish, saylovchilarning saylov jarayonlari bo'yicha xabardorligini oshirish bo'yicha axborotni taqdim etish dinamikasi oshganidan dalolat beradi.

SAYLOVLARNI XOLIS YORITISH TURLI QONUNBUZARLIK HOLATLARINING OLDINI OLADI.

HASHAR ELGA YARASHAR

Mustaqillik bayrami arafasida yurtimiz bo'ylab o'tkazilayotgan hashar mahallalarga yangi nafas, poklik bag'ishlamoqda. Bu xayrli an'ana har galgidek faqat ko'zga ko'rinadigan natijalar bilanгина cheklanmasdan, xalq qalbidagi chuqur o'rin olgan ma'naviy qadriyat sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Joriy yilda ham mamlakatimiz Mustaqilligining 34 yilligi oldidan umumxalq xayriya hashari keng qamrovda o'tkazilmoqda. Tashabbus Jizzax viloyatida ham yuqori ruhda, aniq reja va tizim asosida tashkil etildi. Har bir shahar va tuman, har bir qishloq va mahallada tadbirga puxta tayyorgarlik ko'rildi.



Viloyatda 304 ta mahallada ishchi guruhlar shakllantirilib, mahalla yetiligi xodimlari ko'chalariga biriktirildi, zarur texnika jalb etildi va ish qurollari tayyor holatga keltirildi. Bu jarayonda yurtdoshlarimiz o'z ixtiyori bilan qatnashib, mahallalarni obod qilishda faol ishtirok etdi.

538 ta aholi punktida tozalash ishlari olib borildi. 2 450 ta ko'p qavatli uy, 228 318 ta xususiy xonadon, 114 ta guzar, 237 ta xiyobon va 50 ta ziyratgoh obodonlashtirildi. 535 ta qabriston, 7 765 ta ko'cha, 896 ta bolalar va sport maydonchalari tozalandi. Minglab daraxtlar oqlandi, tagi yumshatilib, sug'orildi.

Tadbir doirasida ehtiyojmand aholi qatlamiga ham e'tibor qaratildi. 224 ta oilaga amaliy yordam ko'rsatildi. 460 nafar boquvchisiz qolgan va nogiron fuqaroning holidan xabar olindi. 486 ta xonadonda tozalik ishlari tashkil etildi. 303 nafar fuqaroning uy-joyi ta'mirlab berildi.



– Hashar – xalqni birlashtiradigan, yurtga sadoqatni oshiradigan amal, – deydi "Mahalla" uyushmasi Jizzax viloyati boshqarmasining mutaxassisi Abdusattor Bobobekov. – Bu faqat obodonlashtirish emas, qalblarni yaqinlashtirish, insonlarni bir maqsad yo'lida birlashtirishdir. Joriy hashardagi har bir harakat, har bir bel bog'lash ortida yurtga muhabbat mujassam.

Abdualjalil QAYUMOV,
O'zA muxbiri
Jamshid YORBEKOV
(O'zA) olgan suratlar.

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Mas'ul muharrir:
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

Navbatchi muharrir:
Shahobiddin LUQMON

Fotograf:
Xolida MUSULMON

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

/yoshlarovozi

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboa. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-808, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



ISSN 2010-6996

9 772010 699000

1 2 3 4 5 6

“VATAN” QO'SHIQLAR TO'PLAMI



25 -avgust kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashabbusi bilan yaratilgan "Vatan" qo'shiqlar to'plamining premyerasi bo'lib o'tdi. Tadbirida Markaz direktori Otabek Hasanov, Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev hamda boshqa vazirlik-idoralar vakillari, taniqli ziyolilar, folklorshunos olimlar, jurnalist va blogerlar, san'atkorlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Bu haqda Oyina.uz nashri xabar berdi.

"Biz qo'shiqlarimiz bilan yoshlarimiz, yurtdoshlarimiz, xorijdagi vatandoshlarimizning qalbidagi Vatanga bo'lgan muhabbatini so'zlarda ifodalashga harakat qildik. Vatanga muhabbat – eng katta kuch. Mana shu kuchni his qilsak, birlashtirsak, yanayam katta kuchga aylanamiz. Umid qilamizki, sizlar bilan bunga erisha olamiz", dedi Otabek Hasanov.

To'plamga kiritilgan qo'shiqlar mashhur xonandalar tomonidan ijro etildi. Qo'shiqlarga ishlangan sahna ko'rinishlari, she'riy chiqishlar hamda muxlislar uchun sovrinli o'yinlar tadbirga ko'tarinki ruh bag'ishladi.

"Vatan" qo'shiqlar to'plamidan joy olgan asarlar:

“Ona yerim” (so'z: Muhammad Siddiq, ijrochilar: Hayriniso Akbarova, Qosim Muinzoda)

“Millatim” (so'z: Nurmuhammad Zoir, ijrochi: Davlatshoh Hamroqulov)

“O'zbekim” (so'z: Eshqobil Shukur, ijrochi: Abror Do'stov)

“Botirlar qo'shig'i” (so'z: Farrux Jabborbek, ijrochi: Mirshod Elov)

“O'zbekiston taqdirim” (so'z: Shahnoz, ijrochi: "Setora" guruhi)

“Olga, O'zbekiston” (so'z: Shahnoz, ijrochilar: Shahnoz, Farrux Fazel, Jenisbek Piyazov va "Setora" guruhi).

Mazkur qo'shiqlar faqat milliy cholg'ular asosida, qadimiy turkiy ohanglar va baxshichilik an'analari zamonaviy musiqiy yo'nalishlar bilan uyg'unlashtirilgan holda yaratilgan. Unda xalqimizning o'zligi, tarixiy merosi, ezgu qadriyatlar va umummilliy birdamlik tuyg'usi kuylangan. Premyeradan so'ng to'plamdagi musiqalar Yandex Music, Apple Music, Spotify, YouTube kabi 170 dan ortiq musiqiy platformalarda e'lon qilinadi. Qo'shiqlar, shuningdek, radio va televideniya ham yangraydi.

KARYERA OROMGOHI BOSHLANDI

Bo'stonliq tumanida Yoshlar ishlari agentligi talaba yoshlar uchun tashkil etgan "Karyera oromgohi – 2025" o'z faoliyatini boshladi. 7 kunlik bepul o'quv oromgohi 2- va 3-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ishtirokchilarga kelajak kasbiy yo'lini belgilashda amaliy yordam berish maqsadida o'tkazilmoqda.

Oromgoh dasturida talabalarni rezyume va suhbat ko'nikmalariga o'rgatish, raqamli savodxonlik va shaxsiy brendni shakllantirish, jamoada ishlash hamda yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar rejalashtirilgan. Yurtimizdagi yetakchi kompaniyalar vakillari bilan jonli uchrashuvlar ham tashkil etiladi.

Oromgohning ilk kunidan ishtirokchilar ishga joylashishda eng zarur ko'nikmalarni o'zlashtirishga kirishdi. Ayniqsa, rezyume-ni to'g'ri to'ldirish, suhbatlarda o'zini ishonchli tutish hamda raqamli muhitda shaxsiy brend yaratish kabi yo'nalishlarda amaliy bilimlar berilmoqda.

Loyihada tanlov asosida 200 nafar faol talaba ishtirok etmoqda. Ular nafaqat nazariy, balki amaliy bilimlar orqali ham kelajakdagi faoliyatini samarali rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

